



POPULATION STATISTICS AND ITS SIGNIFICANCE

Abdurazzakov Bakhodir Turgunboevich
Kokon State University

Abstract

This article analyzes the theoretical foundations of population statistics, its main indicators (number, composition, natural and mechanical movement, density, level of urbanization, etc.). It also highlights the practical significance of population statistics in the economy, social policy, healthcare, education and labor resource planning. The article shows the methods of collecting, processing and analyzing statistical data on the population, as well as the role of compiling demographic forecasts based on them in public administration and territorial development. The conclusion emphasizes that the effective use of population statistics is an important factor in socio-economic development.

Keywords: Population statistics, demography, population size, population structure, natural movement (birth, death, natural increase), mechanical movement (migration), urbanization, labor resources, demographic forecast, socio-economic planning, statistical methods.

Introduction

AHOLI STSTISTIKASIVA UNING AHAMIYATI.

Abdurazzaqov Bahodir Turg'unboevich
Qoqon Davlat Uneversiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada aholi statistikasining nazariy asoslari, uning asosiy ko'rsatkichlari (soni, tarkibi, tabiiy va mexanik harakati, zichligi, urbanizatsiya darajasi va boshqalar) tahlil qilinadi. Shuningdek, aholi statistikasining iqtisodiyot, ijtimoiy siyosat, sog'liqni saqlash, ta'lim va mehnat resurslarini rejalashtirishdagi amaliy ahamiyati yoritiladi. Maqolada aholi to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish usullari, shuningdek,



ular asosida demografik prognozlar tuzishning davlat boshqaruvi va hududiy rivojlanishdagi roli ko'rsatilgan. Xulosa qismida aholi statistikasi ma'lumotlaridan samarali foydalanish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: aholi statistikasi, demografiya, aholi soni, aholi tarkibi, tabiiy harakat (tug'ilish, o'lim, tabiiy o'sish), mexanik harakat (migratsiya), urbanizatsiya, mehnat resurslari, demografik prognoz, ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish, statistika usullari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 19 sentyabrdagi PF-173 sonli Farmoniga muvofiq mamlakatimizda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiri o'tkazilmoqda. Axolini ro'yxatga olish nima uchun kerak? Makroiqtisodiy statistika sotsial salohiyat(resurslar)ni organishni axoli sonini o'rganishdan boshlaydi. Axolini ro'yhatga olish – bu oddiy so'rovnomaga emas. Bu davlatning o'z axolisi haqidagi ma'lumotlarni real holatda bilish uchun kerak bo'lgan eng muxim manbaa hisoblanadi. Davlatga alohida odam emas, balki millionlab odamlardan tuzilgan umumiy manzara kerak. Axoli sonini aniqlash man'bai bo'lib Quyidagilar hisoblanadi: vaqti-vaqti bilan o'tkazib turiladigan axoli ro'yhat; axolining tabiiy o'sishi yoki kamayishi bo'yicha ma'lumotlar; axolning mexanik harakati to'g'risidagi ma'lumotlar: Axolining tabiiy o'zgarishini, yo'ni, tug'ulganlar va o'lganlarni, nikohdan o'tgan va ajrashganlarni fuqarolik holatini qayd etuvchi idora(FHDYo)lar hisobga oladi. Bu odamlarga nima beradi? Ro'yhatga olish natijalari asosida yashab turgan hududinggizda qanch maktab, bog'cha, poliklinika, yo' va jamoat transporti, kommunal infratuzilmalar kerakligi xisoblab ciqiladi. Agar axoli soni kam ko'rsatilsa, resurslar ham kam ajratiladi. Oila uchun nima beradi? Oila tarkibi, bolalar soni, ish bilan bandlik kabi ma'lumotlar orqali ijtimoiy nafaqalar, imtiyozlar, yu-joy dasturlari va tibbiy xizmatlar rejalashtiriladi. Ro'yhatga olish – bu kelajakda oila qanday qo'llab – quvvatlanishini belgilab beradi. Bu mamlakat uchun nima beradi? Davlat iqtisodiyotni, mexnat bozorini, ta'lim va sof'liqni saqlash tizimini tahmin bilan emas, aniq raqamlar asosida rejalashtiradi. Qaysi hudud rivojlanadi, qaysi joyda miammo bor – barchasi shu ma'lumotlar orqali ko'rinadi...Aholini migratsiyasini buya'ni bir mamlakat, viloyat, tuman va aholi yashaydigan



xududlarga keluvchilarni hamda boshqa erga ketganlarni shaharlarda uy daftarida (O'tkaziladigan va chiqariladigan), qishloq joylarda esa, maxalla fuqoralar yeg'ini xo'jalik daftarlari va ro'yxatlarida xisobga olib boriladi. Ana shu hisobga olish va o'tkazilgan axoli ro'yhati ma'lumotlariga statistik ishlov berish asosida har yili hisob - kitob qilish yo'li bilan butun mamlakatdagi va ayrim viloyat, tuman hamda shahar va qishliq aholisining yil ohiridagi umumiy soni aniqlanadi.

$$A_1 = A_0 + (A_{\text{tug}'} - A_{\text{o'l}}) + (A_{\text{kel}} - A_{\text{ket}})$$

Bu yerda: A_0 - Aholining yil boshidagi soni; $A_{\text{tug}'}$ - Joriy yilda tug'ulganlar soni; $A_{\text{o'l}}$ - Joriy yilda o'lganlar soni; A_{kel} - Joriy yilda keiganlar soni; A_{ket} - Joriy yilda ketganlar soni (Bugungi kunda bunday hisoblashlar raqamli texnologiyalarga yuklatilyapti). Bunday hisobotlarni shahar va qishloq, yosh va jins miqyosida ham bajarish mumkin. Ro'yhat o'tkazish va hisobotlar yordamida aholi soni, odatda, yil boshidagi sana bilan aniqlanadi. Biroq, ma'lum sanada aniqlangan aholi soni makroiqtisodiy ko'rsatgichlarni hisoblashda qo'l kelmay qoladi. Masalan, aholi boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, yalpi daromad kabi ko'rsatgichlar yil boshidagi yoki yil ohiridagi soniga asoslanib emas, balki uning o'rtacha soniga qarab hisoblanadi. Aholining o'rtacha sonining aniqlashda turlicha metodlardan foydalanish mumkin. 1. Agar aholi soni faqatgina yilning boshi va ohirida keltirilgan bo'lsa, u holda aholining o'rtacha soni oddiy arifmetik formula yordamida aniqlanadi:

$$\bar{A} = \frac{A_0 + A_1}{2}$$

Bu yerda: \bar{A} - Aholining o'rtacha soni; A_0 - Aholining yil boshidagi soni; A_1 - Aholining yil ohiridagi soni.

2. Agar aholi soni bir yil ichidagi oylar boshiga teng intervallarda keltirilgan bo'lsa, u holga aholining ortacha soni o'rtacha xronologik formulamyordamida aniqlanadi. Agar aholi soni bir necha yillar boshida teng intervallarda keltirilgan bo'lib, lami yillar bo'yicha aholining o'rtacha sonini aniqlash kerak bo'lsa, bunday hollarda ham o'rtachani aniqlash o'rtacha hronologik formula yordamida hisoblanadi.



3. Agar aholi soni bir yil ichidagi oylar bo'yicha teng bo'magan intervallarda keltirilgan bo'ls, u holda aholining o'rtacha soni o'rtacha tortilgan arifmetik formula yordamida hisoblanadi. Aholining o'sish sur'ati Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va xalq farivonligi darajasini belgilab beruvchi **determinantdir**. SHu jihatdan u **Salou** modelini quyudagi uch jihat bo'yicha to'ldiradi. **Birinchidan**, aholining osishi iqtisodiy o'sish sabablarini taxmin qilish imkonini beradi. Barqaror iqtisodiy va aholi sonining o'sib borish sharoitida bitta ishchiga ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati o'zgarishsiz qoladi. CHunki ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilar soni, kapital va ishlab chiqarish hajmi bir sur'atlarda o'sadi. Demak, aholining o'sish sur'ati xalq farovonligining uzoq muddatga o'sishiga sababchi bo'la olmaydi. CHunki, barqaror iqtisodiyot shqroitida bitta ishchiga ishlab chiqarilgan mahsulot o'zgarishsiz qoladi. Ammo, aholining o'sishi yalpi milliy mahsulot ishlab chiqarilishning osishiga sabab bo'lishi mumkin. **Ikkinchidan**, aholining o'sishi, nima uchun ayrim mamlakatlar taraqqiy etgan, boy, ayrimlar esa kambag'l, qaloq degan savolga javob beradi. Aholi o'sishining tezlashuvi ishlovchilar soining ko;payishiga, natijada ularning kapital bilan qurollanganligining pasayishiga sabab bo'ladi. Bu hol esa mexnat unumdorligining pasayishiga olib keladi. SHunga asoslanib, Salou quyudagicha hulosaga keladi: aholi o'sishi yuqori bo'lgan mamlakatda jon boshiga ishlab chiqarilgan yalpi milliy mahsulot qiymati past darajada bo'ladi. **Uchunchidan**, aholining o'sish darajasi kapital jamg'armasi darajasiga ta'sir qiladi. Oltin qoidaga asoslangan jamg'arma darajasining o'sib borishi iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Shu davr ichida kapital bilan qurollanganlik va mexnat unumdorligi darajasi yuqori bo'ladi. Statistika aholi tarkibini quyudagi belgilar bo'yicha o'rganadi: umumdemografik belgilar(jinsi, yoshi, oilaviy holati); Aholini milliy tarkibini tavsiflovchi belgilar(millati, ona tili, fuqoroligi); Mehnat resurslarini tavsiflovchi belgilar(ishlash joyi, mashg'uloti, mutahasisligi); Aholini sotsial tarkibini tavsiflovchi belgilar(ijtimoiy guruhi, yashash man'baalari); Aholoning ma'daniy-ma'rifiy darajasini tavsiflovchi belgilar(ma'lumoti, ta'lim olish, mafkurasi va boshqalar); Aholining hududiy joylashuvini tavsiflovchi belgilar(shahar, qishloq, tuman, viloyat va x.k.). Aholi tarkibida erkak va ayollar sonining o'z'aro mutanosibliigi va ularning yosh jihatdan bir biriga yaqin bo'lishi nikohlaninshi darajasiga salmoqli ta'sir



ko'rsatadi va aholioning ko'payishi darajasiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi va aholining ko'payishi jarayonida asosiy demografik zamin hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga asosan yangi tug'ilgan chaqaloqlar orasida o'rta hisobda har 100 qiz bolaga 105-106 o'g'il bola to'g'ri keladi. Bunday biologik qonuniyat jahonning barcha mamlakatlariga hosdir. Har qanday turar joy aholisining jinsi bo'yicha tarkibini o'rganish ststistikada muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ko'rsatgichni dinamikada o'rganish aholi tarkibida tabiiy harakatlarning vaqt bo'yicha o'zgarishini harakterlaydi. Ushbu holatni quyudagi jadval ma'lumotlari asosida ifodalash mumkin.

Shahar aholisining jinsiy tarkibi

Yillar	Jami aholi(kishi)	Shu jumladan (%)	
		Erkaklar	Ayollar
1926	4660.0	52.9	47.1
1939	6440.0	51.6	48.4
1959	8119.0	48.0	52.0
1970	11799.0	48.7	51.3
1979	15757.0	49.0	51.0
1989	19785.2	49.4	50.6
2000	24966.8	49.3	50.7
2010	25427.9	49.9	50.1

Aholining harakatin ko'satgichlari mazmunan bir biridan farq qiluvchi ikki guruh ko'rsatgichlarini o'z ichiga oladi. Birinchi guruhga aholining tabiiy harakatini, tug'ulishi va o'lishini, nikohdan o'tganlar va ajrashganlar sonini, ikkinchi guruhga esa, aholining migratsiyasini tavsiflovchi ko'rsatgichlar kiradi. O'zbekiston aholisi tez sur'atlar bilan o'suvchi mamlakatlar qatoriga kiradi. Bunda quyudagi omillar katta rol o'ynab keladi: aholining jinsiy nisbati va yosh tarkibidagi mavjud bo'lgan ustunlik, bu omil nikohlanish uchun qulay sharoit yaratadi, umumiy aholi tarkibida aholini takror barpo qilishda ishtirok etuvchilar salmog'ini oshiradi; nikohlanish darajasini sobiq Ittifoq o'rtacha ko'rsatgichlaridan yuqori bo'lishi, uylanmagan va turmushga chiqmagan shahslar salmog'ining ozligi, nisbatan barvaqt uylanish va turmushga chiqish odatda, aholining tabiiy faolriq ishtirok etuvchi qishloq aholisining salmog'ining yuqoriligi; mahalliy aholi o'rtasida migratsiya harakatining nisbatan pastligi;



yuqori yoshdagi ayollarning farzand ko'rishdagi faol ishtiroki va shu boisdan milliy an'anaga aylangan serfarzandlik udimi; mahalliy millat ayollarining anchagina qismining ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etmasligi; demografik madaniyatning nisbatan pastligi va dinning ta'siri ostida homilani sun'iy cheklash usulining uncha tarqalmagaligidandir. Makroiqtisodiyotning bo'lajak istiqbolini oldindan rejalashtirish, eng avvalo, aholining kelgisida o'zgarishini - istiqbolini aniqlashdan boshlanadi. Chunki reja ko'rsatgichlarining asosiy qismi jamiyat ehtiyojini, hususan, aholi ehtiyojini qondirilishiga bo'ysundirilishi lizim.

Izoh:

Determinant - u aniqlovchi ma'nosini beradi. Matematika fanida - bu birinchi darajali tenglamalarda noma'lum sonlar oldidagi koeffitsentlardan tuzilgan ifoda. Solou modeli - Amerika iqtisodchisi Robert Solou nomi bilan atalgan bo'lib, U 1950-1960 - yillarda ishlab chiqilgan. 1987 - yilda iqtisodiy o'sish nazariyasini ishlab chiqqani ucun Solou halqaro Nobel mukofotini olgan. Solou modeli ishlab chiqarish hajmiga vaqt davomida uchta omilning qay tarzda ta'sir qilishini ko'rsatadi: Jamg'arma; aholining o'sishi; xronologik jarayon.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: "O'zbekiston"-2016
2. O'zbekiston Respublikasi "Byudjet" to'g'risidagi qonun. Toshkent: "O'zbekiston" Adliya vazirligi. 2017
3. Shadiyev Xamid Azimovich "Statistika" darslik. Toshkent: Tafakkur bo'stoni. 2013.
4. [ttt://www.gov.uz](http://www.gov.uz).